

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори. сиёсий фанлар номзоди. профессор.

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гўлнора Абдукаҳхаровна –
т

Гурдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i> XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i> ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i> ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамолович</i> СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Махматкулова Нозикой Чориёевна</i> О'ЗБЕКИСТОНДА XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEKANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i> O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIIY NIHOYA QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i> XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i> СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Bahodir Shomurotovich</i> TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i> MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i> АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i> ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i> АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i> BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQRISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i> SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY SHARTI	158-170
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна</i> ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i> АХВОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Хакимович</i> ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quratboyev Alisher Maxsudovich</i> YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOY DAVLATCHILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i> SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING IJTIMOY- FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari asosida).....	205-214

<i>Shukurov Orif Jumaboyevich</i> JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOYIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	215-219
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Akhmedov Oybek Saporbayevich</i> THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS	220-227
<i>Ravshanova Gulrukhbegim Qaxramon qizi</i> ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ	228-232
<i>Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna</i> AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI	233-237
<i>Uliqova Mavludaxon</i> “QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI	238-243
<i>Rahmonov Asror ibni Nusrat</i> HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI	244-252
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI	253-258
<i>Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna</i> INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOYIY-MADANIY FARQLAR	259-265
<i>Vokhidova Tamanno Saidjonovna</i> MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION	266-271
<i>Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna</i> INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARINING BADIY SEMANTIKASI	272-277
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Uzakova Go’zal Sharipovna</i> O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	278-286
<i>Murzaev Shuxrat Shavkatovich</i> СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ	287-293
<i>Qosimov Botirjon Ma’rufjon o’g’li</i> SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL	294-301
<i>Islombek Abdikhakimov</i> QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES	302-309
<i>Hodjaeva Shirinxon Olimxon kizi</i> ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ	310-315
<i>Jiyenbayev Bahadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJYIY TAJRIBA	316-322
<i>Aliyev Sobir Tursunboevich</i> СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	323-329

Адембаев Аралбай Куралбаевич

АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ
ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОЙДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 330-339

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников

ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-
ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ
ПЕРСПЕКТИВЫ 340-346

Xajiyeva Iroda Adambayevna

TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 347-351

Ayatov Raximberdi Ibragimovich

XORIJIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI
O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 352-357

Saidova Dilobar Ikrambayevna

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOY XULQ-ATVORNI
RIVOJLANTIRISH ZARURATI 358-361

Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING
KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI 362-367

Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна

ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА
ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ 368-375

Janonova Sitora Berdinazarovna

ТА'ЛИМ ВА ТАРБИYA ТАРАҚҚИYOTИДА КОММУНИКАТИV КОМПЕТЕНСИYA
TUSHUNCHASINING O'RNI 376-381

Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи

ТАБИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА
ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО
СИФАТИДА 382-387

Bakhadirova Shoxina Nadir kizi

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA
TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH 388-392

Qurbonova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloevna

OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI 393-397

Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION
METODLARI 398-403

Uliqova Mavludaxon

O'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti

Uliqova-1990@gmail.com

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada G. Ipsen semantik maydon tadqiqotida soʻzlarning leksik va grammatik umumiylikini hisobga olgan holda qarashlari, Oʻtgan asrning 90-yillariga kelib oʻzbek tilshunosligida sintaktik maydon masalalariga bagʻishlangan tadqiqot ishlari yuzaga kelgan tadqiqotlarni koʻrib chiqamiz.

Kalit soʻzlar: tilshunoslik, tilning ichki formasi, semantik maydon, Funktsional-semantik

Ulikova Mavludaxon

Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages

APPEARANCE OF THE "BLOOD RELATIVE" CONCEPT AT THE PHONETIC-PHONOLOGICAL LEVEL

Abstract. In this article, we will consider the views of G. Ipsen in the study of the semantic field, taking into account the lexical and grammatical commonality of words, and the research works on the problems of the syntactic field in Uzbek linguistics by the 90s of the last century.

Key words: linguistics, internal form of language, semantic field, Functional-semantic

Уликова Мавлудахон

Учитель, Андижанский государственный

институт иностранных языков

ПОЯВЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ «РОДСТВЕННИК ПО КРОВИ» НА ФОНЕТИКО-ФОНОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЕ

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим взгляды Г. Ипсена на изучение семантического поля с учетом лексической и грамматической общности слов, а также исследовательские работы по проблемам синтаксического поля в узбекском языкознании. 90-е годы прошлого века.

Ключевые слова: языкознание, внутренняя форма языка, семантическое поле, Функционально-семантика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N32>

Kirish. Tilshunoslikda maydon bilan bogʻliq tushunchalar va qarashlarni yuzaga kelishida V. Fon Humbolt'ning "tilning ichki formasi" haqidagi qarashlarini muhim turtki bo'ldi. V. Fon Humboltning "Tilning ichki formasi" haqidagi asarida shunday yozadi: "Tilning har bir tolasi boshqa tolalar bilan chambarchas holda bogʻlanib ketgan ularni matoga qiyoslash mumkin". Inson muomala munosabatiga kirishar ekan, mana shu ulkan matoning bir

qismidangidagina foydalana oladi, xolos. U o'zi foydalanayotgan bo'lakning boshqa bo'laklar bilan muntazam aloqadorlikda ekanligi nutq jarayonining o'zidayoq sezilib turadi.[1; 168 b].

G. Ipsen semantik maydon deganda mazmuniy va grammatik jihatdan o'zaro aloqada bo'lgan so'zlar guruhini nazarda tutgan edi. Boshqa so'zlar bilan aytganda G. Ipsen semantik maydon tadqiqotida so'zlarning leksik va grammatik umumiylikini hisobga olgan. Bunda u yoki bu semantik maydonga birlashgan so'zlar umumiy ma'noga ega bo'lishdan tashqari bir so'z turkumiga mansub bo'lishi muhim sanalgan. Bundan shunday hulosa kelib chiqadiki, I.Trir va G. Ipsen konsepsiyalarida kuzatiladigan asosiy farq I.Trir konsepsiyasi tushunchaga, G. Ipsen konsepsiyasi esa, ma'noga asoslangan. Shunday esa-da, yangi Xumbol'dchilar deb nom olgan nemis olimlari o'tgan asrning 30-yillarida maydon nazariyasiga asos soldilar. [2;30-45 b]

N.I.Filicheva sintaktik maydonni sintaktik ma'nolarni ifoda etuvchi sintaktik modellar guruhi sifatida qaraydi, ular o'ektiv reallikdagi munosbatlarini umumiy tarzda ifoda etadilar degan fikrni bildirdi. Olimaning to'g'ri ta'kidlashicha, sintaktik maydonni ajratish uchun umumiy invariant semantik jihatlarga ega, ifoda planida farq qiluvchi, mazmun planida qisman yoki to'la mos keluvchi til vositalari (sintaktik birliklar) mavjudligi muhim. [3;204 b].

Semantik stilistik maydon assotsiatsiyasi professor E.S.Aznaurova tomonidan o'tgan asrning 80- yillari boshida ilgari surilgan bo'lib, olimaning semantik-stilistik maydonni quyidagicha ta'riflaydi: "Semantik- stilistik maydonni so'zlarning stilistik ma'nolariga ko'ra yaqin bo'lgan sohasi deb ta'riflash mumkin". Ma'noning ushbu sohalari bizni o'rab turgan borliqni emotsional-hissiy va mantiqiy-baholash tarzida qabul qilish, shuningdek, uning obrazli tasavvuri bilan bog'liq bo'lgan insonning bilish faoliyatining ma'lum sohalari bilan munosabatda bo'ladi. [4; 16-22 b].

Funksional-semantik maydon konsepsiyasi A.V.Bondarko nomi bilan bog'liq bo'lib, uning fikricha, funksional-semantik maydon kompleks kategoriya sifatida ma'lum semantik vazifalarni bajarish uchun o'zaro ta'sir qilishga imkoni bo'lgan turli ifoda vositalari tizimini namoyon etadi. Konsepsiya muallifi ushbu kategoriya mazmun va ifoda planiga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi va ifoda plani tilning turli sath va aspektlariga mansub morfologik, sintaktik, so'z yasovchi, leksik kontekstning har xil ifoda kombinatsiyalarini yaratishligini, ular o'z navbatida funksional- semantik maydonning yadro, markaz va periferiya qismlarini tashkillashi va bir xil, turli xil til vositalari grammatik va leksik komponentlar mazmuniy aloqadorliklariga ko'ra bir semantik maydon majmuani tashkil etishlari mumkinligini yozadi. [5;16 b]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'tgan asrning 90-yillariga kelib o'zbek tilshunosligida sintaktik maydon masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari yuzaga keldi. M.A.Abduvalievning "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilingan "To'siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi birliklar" nomli maqolasida sintaktik to'siqsizlik maydonini quyidagicha ta'riflaydi: Sintaktik to'siqsizlik maydoni deb, umumiy to'siqsizlik mazmuniga asoslanib, obyektiv borliqdagi to'siqsizlik munosabatini ifoda etgan, lekin ifoda planida turli xil bo'lgan tildagi mavjud vositalar yoki sintaktik birliklar yig'indisiga aytiladi. Tahliliy materiallarga asoslanib, tadqiqotchi maydon strukturasi to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar dominant birlik degan xulosaga keladi. To'siqsizlikni ifoda etuvchi sintaktik vositalar son jihatidan ko'pchilikni tashkil etganligini hisobga olib mazkur maydonni dominant, yadro va periferiya (chegara) qismlariga ajratgan. [6; 22 b] [7; 24 b]

To'siqsizlik maydoni konstituentlari, ularning maydon uzra tutgan o'rinlari, maydon a'zolarining asimmetrik tabiati kabilar M.A.Abduvalievning "Turli tizimdagi tillarda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar" (ingliz,o'zbek va boshqa bir qancha tillar misolida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida yoritib berilgan. [8, 9; 24 b]

Qon-qarindosh konseptining nominativ maydoni deganda, uni obyektivlashtiruvchi va reprezentatsiyalovchi til birliklarining yig'indisini tushunamiz. Bunday reprezentantlarning yasama, qo'shma, qo'shma yasama, murakkab so'zlar, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, sodda va murakkab tarkibli gaplar, qo'shma gaplar, paremiyalar, nutq klishchelari, murakkab sintaktik butunliklar va matnlar tashkil etadi. Bunday lisoniy birliklar semantikasini tadqiq etishda, semantik-kognitiv yondashuvga tayanamiz, chunki bunday yondashuv qon-qarindosh konseptning mazmun mundariyasi va tabiatini to'liq va atroflicha ochib berishga imkon yaratadi. Boshqa tomondan, lingvokognitiv tahlil asosida sistem, okkazonal va ma'lum shaxsgagina mansub bo'lgan nominativ birliklarni aniqlash, bu orqali konseptning izohi va modelini yaratish imkoniyatlari ta'minlanadi.

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o'rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydalanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o'rganiladi, chunki tovushlar tilda o'z holicha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. [10; 32 b] Tilning bu sathida qon-qarindosh konseptini ishlatilishini asosan biz shevalar orqali so'z o'zagidagi unli va undoshlarni o'zgarishini yoki umuman boshqa o'zakli so'zlarga almashinib ketishini kuzatdik. Dastavval, biz **sheva** atamasiga berilgan ta'rifni keltirib o'tsak: sheva forscha so'z bo'lib, **ovoz, til, so'zlashish, holat, yo'sin, ravish** kabi ma'nolarni anglatadi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos **fonetik, grammatik va leksik** xususiyatlarga ega bo'lgan kichik bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiy o'rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Tilshunos olim H.Jamolxonovning aytishicha, sheva-mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo'lgan, bir yoki bir necha qishloqni o'z ichiga oluvchi kichik bir qismi, guruhi ekanligini ta'kidlaydi.[11; 5] T.Ernazarov esa o'zbek shevalarining leksik tarkibida an'anaviy leksika asosiy o'rinni egallaydi. Shevalarning an'anaviy leksikasi hozirgi kunda asosan **keksalar nutqi(tili)**da qo'llanadigan so'zlar majmui bo'lib, ular **sof leksik dialektal so'zlar** hisoblanadi. Shevalarda qo'llanuvchi dialektal so'zlarning semantik (ma'noviy) guruhlari ko'p bo'lib, ulardan namunalar sifatida quyidagilarni keltiramiz: Qarindosh-urug' nomlari: **əyə, enə, kəttə enə, əməki, chevara, devara, məmə, inim, bola, təg'ə, təg'əvəchə, qayni, qayinsingil, qaynənə, qayin ukə** kabilar deb ko'rsatadi tilshunos olim. Bizningcha ham, dialektal so'zlarning semantik (ma'noviy) guruhlari ko'pligi sababli, ularni hammasini birma-bir o'rganib tadqiqdan o'tkazish har bir tilshunosning oldida turgan muhim vaziflardan biri deb o'ylaymiz. [12; 76 b]

Muhokama. Gulshoda O'tkirbek qizining monografiyasida berilishicha, **opoqi** leksemasiga quyidagicha ta'rif bergan, bu so'z o'tkan asrning 60-yillaridan **katta, yoshi bir**

joyga borib qolgan otaxonlarga murojaat sifatida keng qo'llanilmoqda. Asosan, vodiydagi viloyatlar uchun shunday tushuniladigan so'z. [13;]

Ashirboyev S. ning O'zbek dialektologiyasi kitobida ko'rsatilishicha, unli tovushlarni ifodalashda qo'llaniladigan transkripsion belgilar barcha tillarda ham ko'p qirrali bo'lib, u o'zbek shevalarida ayniqsa fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifodalashda, o'zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalaniladi:

a (a) — umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida qo'llanadi. "**dj**" lovchi shevalarda: **ana, ata, bala.**

e(a) — aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: **eke, epe.** Bu unli barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi.

O'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadagan so'zlar. Bunday so'zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo'llanadi. Bu toifaga aksariyat bollarda qarindosh-urug'chilikka oid so'zlarni kiritish mumkin: **g'ln a'yi** — kelin oyi, **nag'ach** — tog'a, **eske** - aya, **damad** — pochcha.

Qon-qarindosh konseptini ifodalanishida shevalarning ro'li katta ahamiyatga egadir. Darveshov I.ning maqolasida^[16] Namangan shahar shevasi o'zining fonetik, leksik va grammatik tomoni bilan o'zbek shevalari orasida ajralib turadi. Xususan, Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari o'ziga xosdir. Masalan, kelishik tizimlarida bu yaqqol namoyon bo'la oladi. -da (o'rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyda shaklida; Namangan shahar shevasida **uyde** shaklida uchraydi. -dan (chiqish) kelishigi esa uydan; uyda shaklida, ya'ni bunda qo'llanilgan "**a**" fonemasi invarianti til orqa "**a**" unlisini ifodalaydi. **-ga** (jo'nalish) kelishigi qo'shimchasi eshikka so'zini (adabiy) talqini sifatida ishi:ga shaklida uchraydi. Bundan tashqari, -lar (ko'plik shakli) qo'shimchasi **-le, -ler** shaklida uchraydi. Masalan, qalamlar(adabiy) — qalamle(shevada), qalamlarim — qalamlerim kabi.

Kelinoyi — kinchabi (kelinchak + aba) **ona** - aba, **dada** - deda, **aka** — oka **amaki** — katta deda, **qaynsingil** - qeysingil, **qaynota** - amaki, **qaynona** — qeynana.

Apa so'zi o'zbek tilida yakka yoki ba'zi so'zlarga qo'shilgan holda **qarindosh-urug'chilik** atamaları tarkibida keladi. Bu so'zning ham **apa** hamda **opa** shakli bordir. So'zning asli esa "**apa**"dir. **Katta, ulug'** degan ma'noni bildiradi. Quyidagi umumiy ma'nolari bordir: **Aba:** /~ebe, ~epe/ — **ota; bobo, dada, buvi, amaki, katta aka, katta opa, doya** (Qadimda ayollarni tug'dirishga yordam bergan qari ayol. Hozirda Turkiya turklari doyaga **ebe** deyishadi.) kabi ma'nolarga egadir. Ko'kturk bitiglarida **açum-apam** degan so'z ishlatiladi va **ota-bobom, ajdod** degan ma'noni bildiradi (Sir Gerard Clauson, An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish, Oxford, 5-bet, 1972).

Chig'atoycha (Eski O'zbekcha) matnlarda **aba** o'laroq keladi va **ota, ajdod, katta amaki** degan anglamlarni beradi (Suat Ünlü, Çağatay Türkçesi Sözlüğü, 2013).

Natijalar. Bu so'z hozirgi O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri "**katta**" ma'nosida kelmaydi. Katta, buyuk anglami faqatgina qarindosh-urug'chilik so'zlarida saqlanib qolgan. Umuman olganda, **apa** so'zi qarindosh-urug'chilik atamalarida faol qatnashadi:

Opoqi- (**apa+qi**, — qi — so'z yasovchi qo'shimcha; Ma'nosi: **dadaning otasi**, ayrim joylarda yoshi katta ayol)

Opoqaya-(apa+aya, "ulug' ona", amakining xotini) **opoqbuvi**

Opoqdada~opoqdoda (apa+dada, katta dada) aslida dadaning yoki onaning buvasi;

opoqada — (apa+ada, katta ota). Otaning yoki onaning otasi ma’nosida keladigan **buva, bobo, doda, opoqi** so’zlarining o’rnida “**katta**” atamasi ham ishlatiladi. Qo’qon va atrofida ona va qo’shnilarning o’z buvilariga **katabuvi** (katta+buvi) deganlarini ko’p eshitish mumkin!

Opa - qiz farzand va yosh jihatdan katta farzandlar uchun ishlatiladi (Bu so’z Toshkent, Toshkent viloyati va ayrim boshqa viloyatlarimizda **ona** o’rnida ishlatiladi). Ushbu so’z boshqa viloyatlarda (Toshkent viloyati, Jizzax) “**opcha**” o’laroq keladi. Bu ham o’zidan katta bo’lgan qiz tug’ishganga aytiladi. Xulosa qilib aytganda, **apa** so’zi qarindosh-urug’chilik otlari tarkibida kelib, so’zga **katta, ulug’** degan ma’nolarni yuklaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ingliz tilida ham fonologik sathda **qon-qarindosh konseptiga** doir leksemalarni berib o’tsak: oila boshlig’i **ota** leksemasini etimologik kelib chiqishiga e’tiborni qaratsak: O’rta asr ingliz tilidan **fader**, qadimgi ingliz tilidan **faeder, Proto-Westdan German** tilidan **fader, Proto-Germanik**dan esa **fadēr, Proto-Indo-European**dan ***phatēr**. Ma’nodoshlari: **ayr, faeder, padre, pater and père**. Bundan ko’rinib turibdiki, ingliz tilidagi **ota** so’zining etimologik kelib chiqishida, qadimgi ingliz tili davrida **faeder æ** tovushini anglatib kelgan bo’lsa, o’rta asrga kelib **fader æ** tovushi **a** tovushiga o’zgargan, oxirida ***phatēr** leksemasi paydo bo’lgan. Hozirgi zamon ingliz tilida esa **father** leksemasini ishlatilishini bilamiz. **Father** so’zini kelib chiqishi o’zakdagi unilarni o’zgarishi, ya’ni suplitivizatsiya usuli orqali o’zgargan. The Oxford Dictionaryda berilishicha, ‘**mother**’ qadimiy ingliz tilidan **mōdor**, qadimiy german tilidan esa **moder** va Hind-evropa tili o’zagidan **mehter**, Latin tilida esa **mater** and Grekdan **meterdan kelib chiqqan**. Hind-evropa tili qayta qurilgan til bo’lib, ko’plab zamonaviy tillarning kelib chiqishiga bog’liq. Davrlar oshishi bilan **mother** leksemasini paydo bo’lishida ham o’zakdagi unilarni o’zgarishi, ham undosh harflarni o’zgarganligini ko’rishimiz mumkin. Tahlillarimizdan ko’rinib turibdiki, **ona** leksemasining ingliz tilidagi tarjimasini **mother** leksemasining etimologik kelib chiqishi **mōdor**, **ota** leksemasini kelib chiqishi esa **phatēr** leksemasidan paydo bo’lagnligini ko’rishimiz mumkin. Qiziqarli jihat shunda namoyon bo’lmoqdaki, ikki bir-biriga qarindosh bo’lmagan til tojik tiliga ma’nosi va shakli jihatdan o’xshash modar- **mōdor**-ona, **phatēr**-padar-**ota** ham morfologik, ham semantik jihatdan o’xshashligini ko’rishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. W. Humboldt “Language and Philosophy of Culture”. M., 1985. p. 168
2. Ipsen G. Der Alte Orient und die Indogermanen. Festschrift fur W.Streitberg. Heidelberg, 1924. Q. 30-45
3. Филичева Н.И. Синтаксическое поле.–М.:Наука, 1977. –204 с.;
4. E.S.Aznaurova. Translation theory and practice. “Ўқитувчи”. 1989. Pp-16-22.
5. Abduvaliev M.A. Turli tizimdagi tillarda to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplar” (ingliz,o’zbek va boshqa bir qancha tillar misolida 16-b)
6. Abduvaliev M.A. Turli tizimdagi tillarda to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplar” 22 b (ingliz,o’zbek va boshqa bir qancha tillar misolida)
7. Abduvaliev M.A. Turli tizimdagi tillarda to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplar” 24 b (ingliz,o’zbek va boshqa bir qancha tillar misolida)
8. Abduvaliev M.A. Turli tizimdagi tillarda to’siqsiz ergash gapli qo’shma gaplar” 26 b (ingliz,o’zbek va boshqa bir qancha tillar misolida)
9. Ўша манбадан.
10. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. –T.2007.B.32

11. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T. Talqin nashriyoti. 2005. -B.5
12. Эрназаров Т.Ж. Каримжонов В.А. Махмадиев Ш.С. Ўзбек диалектологияси. -76 б, Т., Университет 2012
13. Gulshoda O'tkirbek qizi. O'zbek tilida shevaga xos ba'zi so'zlarning semantic izohi.
14. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –T.2013.
15. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. –T.2013.
16. Darveshov I. Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020
17. Darveshov I. Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020
18. Darveshov I. Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020
19. <https://t.me/s/shevashunos>
20. <https://en.wiktionary.org/wiki...>
21. The Oxford Dictionary.com.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).